

**BEDA O'SIMLIGINI YETISHTIRISH****Turg'unboyeva Noibaxon Dilyorbek qizi****"T.I.Q.X.M.M.I" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti talabasi.****Telefon nomer: +998 94 636 23 43****<https://doi.org/10.5281/zenodo.7619886>**

**Annotasiya:** Beda bir va ko'p yillik o'tlar, ba'zan bargi uch bargchali chala butalar hisoblanadi. O'zbekistonda 8ta turi o'sadi. Ildizi o'q ildizli, yaxshi rivojlangan, sershox tuproqqa 2metrdan ortiq chuqurlikka kirib boradi. Tarixdan ma'lumki O'rta Osiyo bedaning kelib chiqish markazlaridan biri hisoblanadi. Beda har o'rimdan oldin 1-3 marta sug'oriladi.

**Kalit so'zlar:** Beda-Medicago, Ekma beda, Zangori beda, Sariq beda, Duragay beda, Xmelsimon Beda-Medicago. Bir va ko'p yillik o'tlar, ba'zan bargi uch bargchali chala butalar hisoblanadi. Bularga eng muhim yem-xashak o'simliklar kiradi. O'zbekistonda 8turi o'sadi. Bedaning bitta Medicago sativa nomli turi ekiladi. Beda-L avlodiga mansub bo'lib o'z ichiga 50ta turni qamrab olgan, bularning orasida bir yillik va ko'p yillik o'tlar uchraydi. Eng ko'p tarqalgan turlari:

1. Sariq beda
2. Zangori beda.
3. Duragay beda.
4. Xmelsimon beda.
5. Ekma beda.

1. Sariq beda. Ko'p yillik o'tsimon o'simlik. Poyasi tik o'sadi, yotib o'sadigan turlari ham uchraydi. Bo'yi 40-170sm bo'ladi, ichi parenxima to'qimalari bilan to'lgan, tuklangan. Dukkagi o'roqsimon, ko'p urug'li, urug'i sariq, jigarrang, buyraksimon, mayda 1000ta urug'ning vazni 1.0-1.6g bo'ladi.

2. Zangori beda. Ko'p yillik o'simlik, ildizi yaxshi rivojlangan. Poyasi tik o'sadi, qirrali, balandligi 50-70sm tuklangan. Bargi murakkab, barglari ingichka, mayda. Dukkagi mayda, sharsimon yoki burama shaklida o'ralgan ko'p urug'li, usti silliq, urug'i mayda.

3. Duragay beda. Tabiiy sharoitda ko'k va sariq bedaning o'zaro changlanishi natijasida paydo bo'lgan. Morfologik belgilari bilan ko'k va sariq beda oralig'idan o'rin olgan. Gullarining rangi oq, sariq, to'q binafsha rangli bo'ladi. Dukkaklari o'roqsimon yoki burama shaklida bo'ladi.

4. Xmelsimon beda. Bir, ikki yillik o'simlik, poyasi egilib o'sadi, gullari sariq rangli, dukkagi mayda bayroqsimon, bir urug'li.

Quyida yurtimizda eng ko'p yetishtiriladigan o'simlik ko'k beda bilan yaqindan tanishamiz. Ildizi o'q ildizli, yaxshi rivojlangan, sershox tuproqqa 2metrdan ortiq chuqurlikka kirib boradi. Ildizning yon tomonlariga shoxlanishi o'simlik turining shakliga bog'liq. Ildizni yo'g'onlashgan qismi ildiz boshchasi deyiladi. Poyasi o'tsimon sal qirrali, yoni silliq, tukli, cheti tuksiz, ichi kovak, rangi yashil, bo'yi 60-170sm. Bir tupida 3-10ta poya bo'ladi. Tupining shakli har xil

bo'ladi. Dukkagi-burama shaklida, 2-5 marotaba buralgan, 6-12ta urug' bo'ladi, dukkagi mayda, diametri 3-5mm, tukli va tuksiz bo'ladi.

O'simlik turi	Shakli	Rangi	Yuzasi	Kattaligi mm	Urug' kertigi
Ekma beda	Biyraksimon, yulduzsimon	Sarg'ish, kulrang	Xira	2.2-2.5	Dumaloq
Sariq beda	Yuraksimon	«-	«-	1.75-2.0	«-
Qashqar beda	«-	Ich jigari, och yashil	Xira	«-	«-
Bersim	Tuxumsimon	Och va to'q jigarrang	Yaltiroq	«-	Mayda dumaloq

Beda ekilishi O'rta Osiyoda ko'p asrlik tarixga ega. Tarixdan mana shu narsa ma'lumki, O'rta Osiyo bedaning kelib chiqish markazlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning tuproq-iqlim sharoiti sug'oriladigan yerlardan muntazam ravishda mo'l pichan va urug' hosili olish uchun g'oyat qulay.

Beda navlari. Aridnoya o'rtapishar, o'suv davri 110 kun, bahorda birinchi o'rim 65 kunda yetiladi, yaxshi pishmaydi. Ikkinchi yildan boshlab 5-6 yil davomida har yili ikki o'rim olish mumkin. Lalmi yerlarda ko'kat hosili 64% s/ga, pichan 54% s/ga, urug' 2.4% s/ga, ko'kat tarkibida 17.2% oqsil 25.8% to'qima bo'ladi.

Toshkent-3192. Paxtachilik ITI da seleksiya yo'li bilan yaratilgan. Tupi to'g'ri o'sadi, poyalari o'rtacha baland. O'rimdan keyin chiqadigan poyasi to'g'ri bo'ladi. Barglari mayda, poyasi, bargi va dukkaklari tuk bilan qoplangan. Bu serhosil, ertapishar, qishga va qurg'oqchilikka chidamli nav. Bahorda erta o'sadi, kuzda qishlashga kech kiradi.

Toshkent-1. Paxtachilik ITI da seleksiya yo'li bilan yaratilgan. Tupi to'g'ri o'sadi, balandligi o'rtacha, o'rilgandan keyin o'sib chiqadigan poyasi yarim tik o'sadi. Gullari binafsha rangda bo'ladi. Dukkaklari o'rtacha yirik 3-4 marotaba buralgan. Urug'i o'rtacha bahorda erta o'sadi, kuzda qishlashga kech kiradi.

Xiva javdari navi. Tupi yoyilib o'sadi ko'p poyali, balandligi o'rtacha, o'rilgandan keyin o'sib chiqadigan poyalari yerbag'irlab zich o'sadi. Barglari o'rtacha yirik. Dukkaklari o'rtacha, qora rangda, 2-3 marotaba buralgan bo'ladi. Urug'i loviyasimon, och yashil-sariq rangda. Bu kechpishar nav, bahorda kech o'sa boshlaydi va kuzda o'sishdan erta to'xtaydi. O'suv davrida o'rtacha 3 marotaba o'riladi. Bu nav qishga chidamli, qurg'oqchilikka chidamsiz.

Yetishtirish texnologiyasi. O'g'itlash yer haydashdan oldin 10-15t go'ng solinadi. Tuproq turi va unumdorligiga qarab o'rtacha 15-90 kg fosfor va 50-100 kg kaliy sarflanadi. Ikkinchi va uchinchi yili 60-90 kg fosfor va 30-45 kg kalsiy sarflanadi. Tuproq tarkibida azot yetarli bo'lmasa 50 kg azot ekishdan oldin solinadi. Azot bu me'yordan ko'p ishlatilsa biologik azot to'planmaydi, ekinning afzalligi yo'qoladi. Ekish uchun urug' tayyorlanadi. Davlat andozalari bo'yicha ko'k beda urug'ining tozaligi 92-98%, unuvchanligi 70-95% bo'lishi kerak. Beda yoppasiga qatorlab yoki tor qatorlab beriladi, ekish chuqurligi 1-3 sm bo'ladi. Ekish me'yori 14-16 kg. Beda boshqa ekinlar bilan qo'shib ham ekiladi. O'sish davrida sug'oriladi. Bu tuproq sharoitiga, o'rim soniga va olinadigan mahsulotiga bog'liqdir. Shu sababli bedaning har o'rimi 1-3 marta sug'oriladi, bulardan biri albatta shonalash davrida o'tkaziladi. Ayrim hollarda birinchi o'rim sug'orilmasligi ham mumkin. Sug'orish me'yori 800-1000<sup>3</sup> ga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning tuproq-iqlim sharoiti hisobga olib, beda janubiy viloyatlarda fevralning oxirida, markaziy viloyatlarda martning birinchi 10 kunligida va shimoliy viloyatlarda martning ikkinchi 10 kunligida ekiladi. Birinchi sovuq tushgunga qadar beda 40-45 kunlik bo'lishi, tuplash fazasiga o'tgan va ildiz otib olgan bo'lishi kerak. Tuplanmagani esa sovuqda nobud bo'lishi mumkin. Qishloq xo'jalik fani va amaliyotining ko'rsatishicha, beda va boshqqli don ekinlari ozuqabop ekinlar bilan qo'shib ekilganda sof holda ekilganga nisbatan hosildorlik 2-2.5 barobar ortadi. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarda bedani amalda har qanday o'tmishdoshdan keyin joylashtirish mumkin. Uning o'zi ham deyarli hamma ekinlar uchun eng yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Kam sho'rlangan va yog'ingarchiliklar kam bo'ladigan, sho'rlanmagan yerlar shudgor qilingandan keyin dekabr-yanvar oylarida egatlab suv qo'yib, yaxob suvi beriladi. O'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlarda pol olinib, katta me'yorlarda 2-3 marta suv bostirilib, tuzlari ketguncha yuviladi. Tish beda maysalarning bo'yi 10-12 sm bo'lganda sug'oriladi. Kechikib ekilgan va yomg'ir yog'maganda har 5-7 kunda sug'oriladi. Eski bedapoyalar bahorda ta'mirlanadi. Ta'mirlash beda hamda kuzda javdar bilan 80 kg/g, bahorda 8-10 kg/g sudan o'ti bilan o'tkaziladi. Pichan sifati o'rimni o'tkazish muddatiga bog'liq.

Mamlakatimiz hududlarida bedaning ko'p tarqalgan turlarini asosiy farq qiluvchi belgilarini ta'kiflab o'tish joiz sanaladi. Ko'k beda gulining rangi binafsha va har hil tusda, sariq beda gullarining rangi esa sariq bo'ladi. Ko'k beda dukkagining shakli spiralga o'xshab 2-5 marta buralgan, sariq beda dukkaklari o'roqsimon yoki to'g'ri shaklda. Ko'k beda kalta tukchalar bilan kam va o'rtacha qoplangan, goho tukchalari uzun bo'ladi. Sariq bedaning orqa tomonidan uzun-uzun tukchalar bilan qalin qoplangan Ko'k beda urug'i noto'g'ri buyraksimon, ko'pincha sariq-yashil rangda yaltiroq, mayda. Sariq beda urug'i esa buyraksimon, ko'pincha burchakli, rangi sariqdan kulranggacha, Xira ancha mayda hisoblanadi.

### References:

1. A.A. Matkarimova, T.X. Mahkamov, M.M. Maxmudova, X.Ya. Azizov, G.B. Vaisova "Botanika" Toshkent "Go To Print" 2020yil
- 2.. Z.Jumaboyev, Q.K.O'razmetov, I.Usmanov, A.K.Chulliev, O.Mustafoeva "O'simlikshunoslik va paxtachilik" O'quv qo'llanma Toshkent-2020yil.
3. O. Yaqubjonov, S. Tursunov "O'simlikshunoslik" Toshkent 2008yil.

4. S. Tursunov "O'simlikshunoslik" Ijod-Press nashriyoti, 2019yil.

